

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1091>

IMPROVEMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF MILITARY PROFESSIONAL EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Buzrukova Nigora To'raxo'jayevna

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

Farg'ona o'quv markazi

nigorabuzrukova358@gmail.com

+998905359849

+998945565418

Annotatsiya. Harbiy huquqiy ta'lim- tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, insonni jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarga roiya etish, ularni hurmat qilishga chorlaydi. Huquqiy davlatni barpo etishda qatnashuvchi shaxs, huquq va erkinliklarini bilib qolmasdan, demokratiyaning tub ma'nosini anglashi lozim. Chunki demokratiya huquqiy davlatning tarkibiy qismidir. Huquqiy ta'lim- tarbiya dastlab oilada, bog'chada, maktabda boshlanadi. Lekin huquqiy ta'lim- tarbiya inson hayoti davomida doimiy ravishda davom etadigan jarayondir. Huquqiy davlat qurarkanmiz fuqarolarning qonunlarni bilishi, qonunga itoatkorlik, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Bu borada Harbiy huquq fan o'qituvchilari, huquqni muhofaza qilish organlari va ommaviy axborot vositalarining xizmatlari katta bo'ladi va ular zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Kalit so'zlar: Huquqiy ta'lim, ta'lim tizimi, pedagogika, harbiy qonun, qonun tizimi, harbiy ta'lim, qonunchilik, huquqiy bilim.

Аннотация. Военно-правовое образование является неотъемлемой частью общего образования, которое побуждает людей следовать и уважать правила



общества. Человек, участвующий в построении верховенства закона, должен понимать фундаментальный смысл демократии, не зная своих прав и свобод. Потому что демократия - это неотъемлемая часть верховенства закона. Юридическое образование начинается в семье, в детском саду, в школе. Но юридическое образование - это процесс на протяжении всей жизни. При построении правового государства долг каждого из нас - развивать знание закона, законопослушание, правовое сознание и правовую культуру граждан. В этом плане услуги преподавателей военного права, правоохранительных органов и СМИ будут велики и возложат на них ответственные задачи.

Ключевые слова: правовое образование, система образования, педагогика, военное право, система права, законодательство, юридические знания.

Annotation. Military legal education is an integral part of general education, which encourages people to follow and respect the rules of society. A person involved in building a state governed by the rule of law must understand the fundamental meaning of democracy without knowing their rights and freedoms. Because democracy is an integral part of the rule of law. Legal education begins in the family, in kindergarten, in school. But legal education is a lifelong process. When building a state governed by the rule of law, it is the duty of each of us to develop the knowledge, obedience to the law, legal awareness and legal culture of citizens. In this regard, the services of teachers of military law, law enforcement agencies and the media will be great and will entrust them with responsible tasks.

Keywords: legal education, education system, pedagogy, military law, law system, military education, legislation, legal knowledge.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida



tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq kasb egalari pedagoglar, ularning kasbiy salohiyati, malaka va mahorat darajalari, ma'naviy qiyofasi masalalari ham davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biridir. Shaxsni tarbiyalash masalasi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, Juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu murakkab va mas'uliyatli vazifa o'qituvchi-pedagoglar zimmasiga yuklatiladi. O'qituvchi-pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi va yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi va u o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonunlari, tamoyillarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazarlar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiqetishdek muhim vazifani bajaradi. O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. ***Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investisiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.*** Oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, talabalarning yashash sharoiti hamda ijtimoiy-maishiy ob'ektlar faoliyatini yaxshilash, oliy o'quv yurtlari hududlarini obodonlashtirish, jumladan, poytaxtimizdagi "Yoshlik" talabalar shaharchasida joylashgan talabalar turar-joylarini tubdan ta'mirlash bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining 2011 yil 20 mayda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va



mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim muassasalari faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etish, ularni zamonaviy darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy laboratoriyalar bilan ta'minlashda muhim dasturi amal bo'lmoqda. ***"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"*** g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir. Zero, Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishini puxta bilishi lozim. ***L.B. Farberman, R.G. Musinava F.A. Jumaboyevalarning fikricha, "O'quv jarayoniga tizimli yondashuv nuqtainazaridan qaralganda uning o'zaro bog'langan ikki tizimiga amal qilinadi. O'quv jarayoni o'zining maqsadi, o'qitish va o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalaridan iborat murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi"***. Ular o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Ikkinchidan, aso'quv jarayoni nisbatan yirik tizim bo'lgan pedagogik jarayonning tag tizimidir. Bu tag tizim o'qitish, ta'lim berish va tarbiya jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga bu tizimda salmoqli tizim sifatida oliy ta'lim tizimi o'quv jarayonining rivojlanishi qonuniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar va talablar tizimi ham mavjud. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bunga alohida e'tibor qaratilgan, unda ta'kidlanganidek, "yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish" lozim. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, bu kasbiy ta'limning hozirgi kuni va uning kelajagidir. S.Yo'ldoshevaning "Oliy va kasb – hunar ta'limida pedagogik texnologiyalar" nomli qo'llanmasida quyidagi fikrlar bayon qilingan: "O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:



1. Insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan voz kechish;
2. Hamkorlik, ya'ni pedagog va talabalar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
3. Erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish"[1].

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi–Pedagogik jarayonda kursantga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi. Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayriinsoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan kursantga emas, kursantdan o'quv fani tomonga yo'q harakatlanishni taqozo etadi, kursantlarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi. *“Harbiy kadrlar, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo'lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual etuk oficerlarni, shuningdek, bugungi kunda armiyamizning o'zagini tashkil etayotgan yuksak professional malakali kichik komandirlar-serjantlarni tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash ham Qurolli Kuchlar qo'mondonligi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi darkor”* - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz. *O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 52-moddasiga binoan «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi”* qonuniga asosan umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo'ladi, hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirishni va ularning



rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi. Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo'lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo'llash metodlarini takomillashtirish bo'yicha **AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya** kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida **«ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish»** dolzarb vazifa etib belgilandi[1]. Yoshlarga ta'lim berish jarayonida harbiy kasbiy ta'limning vazifasi quyidagilardan iborat:

- mamlakatni qurolli tajovuzlardan himoya qilish va mamlakat mudofaasi haqidagi o'zlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq va burchlarini, harbiy (2000-yildan e'tiboran mudofaa) doktrinamizning mudofaa tavsifi va maqsadlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari hamda boshqa qo'shin turlarining maqsad va vazifalarini puxta bilib olishlari;
- O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarini, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatini tashkil qilish to'g'risida»gi qarorini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobi to'g'risidagi Nizomini, harbiy xizmatni o'tashdan bo'yin tovlash va sodir



etilgan harbiy jinoyatlar uchun qonunlarda belgilangan ma'muriy va jinoiy javobgarliklarni bilishlari;

-harbiy qasamyod va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Nizomlarining asosiy talablarini chuqur anglagan holda o'rganishlari;

-harbiy qismning qurollanishi, harbiy texnikasi va shaxsiy tarkibning joylashish faoliyati bilan tanishishlari;

- harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarni va amaliy ko'nikmalar, shuningdek, jismoniy chiniqish va ruhan bardam bo'lishni o'rganishlari;

-fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallashlari

Jahonda va mamlakatimizda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy kuch sifatida e'tirof etilib, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish orqali tahsil oluvchilar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi pedagogikaning hozirgi zamon ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Bu vazifa o'qituvchi mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilimi orqali amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida xalqimizning asosiy maqsadlaridan biri insonparvar, demokratik huquqiy davlat barpo qilish deb ko'rsatilgan. Huquqiy davlat qurish uchun esa shu davlat poydevorini yaratuvchilar, ya'ni yosh avlod huquqiy jihatdan bilimli, tarbiyali bo'lishlari kerak. Qonunlarni biladigan, ularga roiya etadigan, davlat va jamiyat manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yib, ularni bajarishda yuksak saviyaga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash huquqiy tarbiya fanining asosiy maqsadini tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning mustahkamlanishida qonunchilikka roiya qilish, fuqarolarning huquqiy onglilik darajasini yuksaltirish, qonunlarni hurmat qilish va ularga bo'ysunish, axloq-odob



qoidalariga roiya etish kabi xislatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Asosiy qism: Har sohada bo‘lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Harbiy Ofiser va serjant kadrlarga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofiser va serjant faqat ma’lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo‘lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli inson, o‘z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o‘z bo‘ysunuvchilariga tarbiya va ta’lim bera oladigan pedagog bo‘lishi zarur. *«Harbiy kadrlar, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 21 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida, – birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo‘lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual yetuk ofiserlarni, shuningdek, bugungi kunda armiyamizning o‘zagini tashkil etayotgan yuksak professional malakali kichik komandirlar – serjantlarni tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash ham Qurolli Kuchlar qo‘mondonligi faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi darkor. Bu borada harbiy bilim yurtlari va serjantlar maktablarida harbiy kadrlarga harbiy soha va harbiy san‘at rivojidagi asosiy tendensiyalarni aks ettiradigan, prinsipial jihatdan yangi mutaxassislik va ilm-fan yo‘nalishlarini jangovar harakatlarni olib borishning xorijiy tajribasi, shakl va metodlarini hisobga olgan. holda o‘rgatish oldimizda turgan ishlarning eng mas’uliyatli jabhasi, desam, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi».*[2] Har sohada bo‘lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Harbiy kadrlarga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofiser faqat ma’lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo‘lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli inson, o‘z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o‘z bo‘ysunuvchilariga tarbiya va ta’lim bera oladigan qobiliyatli va mahoratli pedagog



bo'lishi zarur. Harbiy tinglovchilar, xususan, tarbiyachi harbiy ta'lim-tarbiya borasida qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, nima qilishi, qanday yo'l tutishi, nimalarga e'tibor berishi lozim? Bu va shu kabi boshqa savollarga ma'lum darajada pedagogik fanlar javob beradi. Mazkur fan Harbiy pedagogik mahoratining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va shakllantirish yo'llarini yoritishga qaratilgan.

Harbiy xizmat turlari haqida ham so'z borar ekan quyidagilarni aytib o'tish joiz:

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

muddatli harbiy xizmat;

safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati. Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma etti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar. Huquqiy ta'lim va tarbiya o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham shundaki, yosh avlodni huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish hamda qonuniylik, qonunga itoatkorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilangan. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Kamil inson tarbiyasi har doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Yoshlarni huquqiy tarbiyalash huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda hamda huquqiy bilimlarini oshirishda huquqiy ta'lim asosiy rol



o'ynaydi. Yoshlarga huquqiy ta'lim berishda va tarbiyalashda biz uchun qadrlı bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodıqlıq ruhını shakllanıtıra olsak, har bırımlız uchun ıjobıy natıja bajarayotgan ıshlarımızning mahsulı ekanlıgı bılınadı. Huquqiy ta'lim- tarbiyalı bo'lısh uchun har bır shaxs umumhuquq bılımgı, unı onglı ravıshda qabul qılıshga va huquqiy madaniyatnı alohıda bajarıshga yetarlı darajada huquqiy saboq olısh kerak. Lekın hozırđı paytgacha huquqiy ta'limtarbiya tushunchası, uning tushuntırısh metodları olımlarımız tomonıdan to'lalıgıcha yoritılmagan. Huquqiy ta'limning keng va tor ma'noda ko'rısh mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, ko'pchılıkning ongıga ta'sır ko'rsatıshga qaratılğan ta'lim, tor ma'noda esa alohıda shaxsga, uning ongıga ta'sır etısh yo'lları tushunıladı. Huquqiy ta'lim natıjasıda keng omma yoki shaxs o'z xattı – harakatlarınıng qonunıy ekanlıgını tushunsa, huquq tartıbotnı buzmaslıkka harakat qılssa o'zını onglı ravıshda, huquq normalarına rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erıshılğan bo'lıb hisoblanadı. Demak, huquqiy ta'lim bu- tashkılıy ravıshda muntazam olıb borıladıgan, anıq maqsadnı ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslarına» ta'sır qıla oladıgan, ularda huquqiy ong, huquqiy bılıml, qonunlarga rioya qılısh xıslatlarını vujudga keltıradıgan harakatdır[2].

Ma'lumki, qonunga rioya qılısh uchun, eng avvalo unı bılısh kerak. Huquqiy ta'lim- tarbiya orqalı har bır shaxsning ongıga nıma qılmoq mumkin, nıma qılmoq mumkin emaslıgını, jamiyat, davlat undan nımanı talab qıladı, qonunlarga rioya etısh yo'lları nımadan ıborat ekanlıgını yetkazmoq lozim. Tartıb buzuvchılar orasıda o'z hattı-harakatınıng noqonunıyılıgını anglamaslık, noqonunıy ekan deb ham o'yılamaslık va bunday harakatnı jazoga loyiq emas deb tushunısh ko'p uchraydı. Shunday tushuncha hosıl bo'lmaslıgı uchun huquqiy ta'lim- tarbiya jarayonıda har bır jamoada o'rnatılğan tartıbnı buzısh, qonun normalarına rioya etmaslık natıjasıda ıntızomıy, ma'muriy, moddıy yoki jinoiy jazo kelıb chıqıshını tushuntırısh, uqtırısh zarur. Huquqiy ta'lim- tarbiyanı kuchaytırıshga oltmıshınçı yıllardan boshlab



alohida ahamiyat berilla boshlandi. Shu davrga aytish kerakki, hozirda ham huquqiy ta'limtarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib olib borilayapti.

Harbiy ta'limning asosiy Yo'nalishlari o'sib kelayotgan avlod jismoniy va ma'naviy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yoshlarni davlat mehnati va mudofaasiga tayyorlash. Harbiy bilimlar kerakli hajmini o'zlashtirish, jismoniy tayyorgarlik, o'z vatani harbiy tarixini, ramzlarini va tamoyillarini o'rganish, vatanparvar fuqaro, sodiq jangchini shakllantirish kiradi.

Harbiy ta'lim jarayonida o'quvchilar:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilishi;
- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinlarning vazifalarini;
- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi Qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini o'rganishi;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganish va anglashi;
- harbiy qismining qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning tushunish tarzi va joylashuvi bilan tanishishi;
- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nadan mustahkam bo'lishi;
- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirishi kerak bo'ladi.



Harbiy nizomlarning amaliy harakatlar bilan bog'liq bo'lmagan joylarini o'rganishda hikoya, suhbat, tushuntirish uslublaridan foydalaniladi va tushuntirishni plakatlar, diafilmlar va o'quv kinofilmlari yordamida amalga oshiriladi. Guruh bo'yicha posbonning harakatlari maxsus jihozlangan joyda amaliy o'rganiladi. O'quvchilarga nizomlarni ongli tarzda o'zlashtirishlariga yordam berish uchun mashg'ulotlar jarayonida nizom bilan mustaqil ish lashlariga sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Dasturning harbiy xizmat asoslari bo'limiga yangi «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusini kiritilishi alohida e'tiborga molikdir. Gap shundaki, O'zbekiston Respublikasi 1949-yilgi Jeneva konventsiyalari va 1977-yilgi ularga Qo'shimcha protokollarga 1993 yil sentabrda qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomining 19-moddasida har bir harbiy xizmatchi harbiy harakatlar olib borilayotgan joylardagi harbiy bo'lmagan aholi bilan shuningdek, harbiy asrlar bilan muomala qilishning xalqaro qoidalarini bilishi va ularga rioya etishi lozimligi belgilab berilganligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida qayd etilganidek, O'zbekiston «xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarini ustunligini» tan olishini anglatadi. Yoshlarni Harbiy huquq fani o'quv dasturiga to'rt soatlik «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusining kiritilishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni bajarish yo'lidagi ishlarga mas'uliyat bilan qarashining qo'rinishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining ga to'rt soatlik **«Qurolli o'qnashuvlar huquqi»** mavzusini kiritilishi munosabati bilan -Harbiy ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr talabalari va hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan harbiy rahbar (Harbiy kasbiy ta'lim huquq fani o'qituvchi)larini «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» mavzusi bo'yicha bilim va malakalarini oshirish va uslubiy mahoratlarini yanada takomillashtirish zurruriyati yuzaga keldi.

Hozirgi kunda **«Qurolli to'qnashuvlar huquqi»** fani majburiy fan Harbiy ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr talabalariga tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq o'qitilmoqda, dastur asosida o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matni va uslubiy



ishlanmalar ishlab chiqilgan. «Qurolli to'qnashuvlar huquqi» fanini o'qitilishini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, harbiy ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida harbiy o'qituvchining kasbiy darajasiga qo'yiladigan talablar kuchaymoqda va uning ish natijalari uchun shaxsiy javobgarligining roli o'sib bormoqda. O'qituvchi-amaliyotchi-psixolog o'z fanini yaxshi biladigan, kursantning shaxsini yaxshi biladigan, o'zini qanday boshqarishni, o'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashni biladigan fan o'qituvchisi o'rniga kelishi kerak.

Bunga faqat o'qitilayotgan mavzu haqida ma'lumotga ega bo'lmagan, balki ularni o'zlashtirish uchun psixologik va pedagogik qonunlarni amalda qo'llay oladigan o'qituvchi erishishi mumkin. Shu bilan birga, harbiy universitetlarda an'anaviy ravishda fundamental ilmiy o'quv mashg'ulotlari o'z ishini yaxshi biladigan, ammo pedagogik faoliyatga tayyor bo'lmagan mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Amaliy va maxsus tadqiqotlar universitet o'qituvchilarining katta qismi kasbiy pedagogik mahorat nima va uni shakllantirish yo'llari to'g'risida aniq tasavvurga ega emas degan xulosaga olib keldi. Ko'pchilik va nafaqat boshlang'ich o'qituvchilar pedagogik faoliyatning juda oddiy ko'rinadigan masalalarini hal qilishga tayyor emas edilar. Ularning aksariyati shablona, o'qitishning monoton usullariga sodiq bo'lib, darslarni o'tkazishga imkon beradigan ba'zi amaliy ko'nikmalar bilan cheklangan va bu pedagogik faoliyat uchun etarli ekaniga to'liq ishonch hosil qiladi.

O'qituvchilarning ushbu qismi orasida o'qituvchilik faoliyati uchun mutaxassislik mavzusini bilish kifoya, deb ishoniladi. Ko'p jihatdan, bu harbiy o'qituvchilarning shakllanishi asosan o'qitiladigan fanning mazmuni bo'yicha ishlash bilan bog'liq (bu haqida bilimlarni to'ldirish, ularni ma'ruza kursiga kiritish va boshqalar), ammo o'quv jarayonining o'zi to'g'risida nazariy bilimlarni egallash bilan emas. O'qituvchining shakllanishi, qoida tariqasida, 10-15 yil yoki hatto 20 yil oldin o'qitilishning shaxsiy, shaxsiy tajribasi asosida: ***"Men o'rgatganim kabi dars beraman"***. ***Reproduktiv-kommunikativ ta'lim modeli takrorlanadi, bu kursantlarga***



uni tayyorlovchi faoliyatdan tashqarida tugallangan "bilimlar" haqida xabardor qilishga asoslanadi. Kursant aloqa qiluvchi ma'lumotni qabul qilishi, so'ng uni yodlab olishi, so'ngra, qoida tariqasida, og'zaki shaklda takrorlashga majburdir.

Bunday o'qitish natijalari yaxshi ma'lum: o'qitish nazariyasini o'zlashtirishga bo'lgan salbiy munosabat o'qituvchining malakasini oshirish jarayoniga va o'qitish sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Mashg'ulot rahbari dastlab mashg'ulotni boshlashda O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni 1992-yili 3-iyul kuni qabul qilinganligini 2001-yili II-mayda unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlanganligini ma'lum qiladi. Undan keyin qonun mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi. Qonunning ikkinchi moddasida shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasining mudofaasi - bu davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi, respublikaning qarashlari va aholining tinch hayotini himoya qilishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy tadbirlar majmuasidir. Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat; boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'rsatish hollari bundan mustasno; xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda jamoaviy xavfsizlik tizimlarida ishtiroq etish; harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik; harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurol mojarolaming xususiyatiga monand bo'lishi; yadroviy va boshqa turdagi yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish; mudofaaning yetarli darajada bo'lishi; harbiy xizmat sharafligi ekanligini ta'minlash. Mashg'ulot rahbari O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunining modda va prinsiplarini o'quvchilarga tushuntirar ekan ulaming hayotdagi tatbig'iga hayotiy misollar keltirib izohlashi muhim o'rin tutadi. Mashg'ulot mazmuni bayon etilib tushuntirilgandan keyin mashg'ulot rahbariga o'quvchilarni suhbatga chorlash, savollar bilan murojat etib, ularning faolligini oshirish tavsiya etiladi.



O'quvchilarni harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari bilan tanishtirish, ularga boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar to'g'risida tushuncha berish. To'g'ridan-to'g'ri va bevosita boshliqlarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirish. Ularda nizom talablariga bo'ysunish bo'yicha ko'nikmalarni hosil qilishadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda harbiy o'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyatining mohiyati to'g'risidagi g'oyalar universal xususiyat va entsiklopediyadan kasbiy xususiyat sifatida o'qituvchilik mahoratiga, notiqlikka, kasbiy pedagogik madaniyatga malaka umumiy ko'rsatkichi sifatida o'zgargan. Bunday sharoitda harbiy o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish muammosi nafaqat ob'ektiv ijtimoiy ehtiyoj sifatida, balki harbiy o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish uchun sub'ektiv ehtiyoj sifatida ham paydo bo'ladi. O'qituvchilarni tanlash tizimi xiralashgan va o'qitish sifatiga va, eng muhimi, O'zbekistonning yuqori malakali himoyachilarini tayyorlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan eskirgan stereotiplarga botgan. Harbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'qituvchilarni tanlash mezonlari ishlab chiqilmagan. Sovet hokimiyati boshida tashkil etilgan kadrlar siyosati harbiy maktablar uchun o'qituvchilarni professional tanlash va tayyorlashni cheklaydi. Shu bilan birga, universitetda pedagogik faoliyat uchun ofitserlarni tayyorlash uchun maxsus o'quv muassasalarining yo'qligi (kamdan-kam holatlar bundan mustasno, barcha turdagi kurslarning faoliyati ijobiy natijalarga olib kelmaydi, ammo bu boshqa muhokama uchun mavzu) bo'limlarni o'z o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishga majbur qiladi, ular odatda tashkil etiladi. o'qitiladigan fanlarning tarkibini o'rganishda. Oliy harbiy o'quv yurtlari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga kasbiy shakllanish jarayonini ta'minlashga qaratilgan kafedralarning individual pedagogik jamoalarining sa'y-harakatlari ko'pincha eklektik, nomuvofiq va optimistik nuqtai nazaridan ta'minlanmaydi. Boshlang'ich o'qituvchilar ko'proq tajribali hamkasblarining ishini kuzatish orqali o'qitish usullarini o'zlashtiradilar. Shubhasiz, barcha kafedralar o'qituvchilarni universitetdagi doimiy murakkab o'quv mashg'ulotlari uchun yuqori darajada tayyorlashga qodir emas.



O'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va etishtirish muammosini hal etishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etishga etarli darajada yondashmaslik natijasida, kafedralar pedagogik jamoalarining pedagogik mahoratni shakllantirish bo'yicha harakatlarining nomuvofiqligi natijasida harbiy universitetlarning o'qituvchilari har doim ham muvaffaqiyatli yakunlanmaydigan qiyin, asossiz vaqtni bosib o'tmoqdalar. So'nggi bir necha yil ichida, hatto universitet o'qituvchilarining pedagogik mahoratga ega bo'lish darajasining pasayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Harbiy xizmat - bu fuqarolarning Qurolli Kuchlarda vatanni tajovuzdan himoya qilishga qaratilgan maxsus federal xizmati. Harbiy xizmatning qonunchilik bazasi O'zbekiston Konstitutsiyasi, *"Mudofaa to'g'risida"*, *"Harbiy xizmat va harbiy xizmat to'g'risida"*, *"Harbiy xizmatchilarning maqomi to'g'risida"* qonunlari, harbiy nizomlar va O'zbekistonning boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Qonun- davlat hokimiyatining yuqori organi yoki aholining bevosita xohishi bilan (masalan, referendum orqali)

O'zbekiston Konstitutsiyasi bilan belgilangan tartibda qabul qilingan va eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjat. Huquq va tartib- jamoat hayotining turli sohalarini tartibga soluvchi va odamlarning xulq-atvoriga ta'sir qilishning xarakterli va nomuvofiq usullari (urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va boshqalar) bilan ajralib turadigan turli xil ijtimoiy normalarni amalga oshirish natijasida paydo bo'lgan jamoat tartibining tarkibiy qismlaridan biri. Urushlar va qurolli mojaralarda, boshqarilishi kerak bo'lgan ko'plab odamlar ishtirok etadilar va maksimal darajada samarali ishlatilishi kerak bo'lgan turli xil moddiy-texnik vositalar qo'llaniladi. Ushbu odamlarni qurolli kurash talabiga muvofiq birlashtirishning yagona usuli bu muayyan tartibni, ularning xatti-harakatlarining qoidalarini o'rnatishdir. Harbiy qonun ustuvorligi harbiy jamoaning birlashishiga, shaxsiy tarkibning ma'naviy va ruhiy holatini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Har qanday harbiy xizmatchi, u yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamkasblari, har biri



o'z o'rnida, u bilan birga qat'iy belgilangan tartibda harakat qilishlariga amin bo'lishlari kerak.

Harbiy rahbar, Harbiy kaspiy ta'limning huquqiy vazifasi faqat o'quvchilarga zarur bilimlar miqdorini berish yoki ma'lum bir amaliy ko'nikmalarni singdirishda emas, balki Vatanni tajovuzkorlardan himoya qilishda ichki bir ishonch va mas'uliyat bilan o'z harbiy-kasbiy bilimlarini takomillashtirishga ularni otlantirish hamdir. Bu maqsadda o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faolJashtirishga asoslangan yanada ilg'or ta'lim usullaridan samarali foydalanish yo'lyo'riqlarini qo'llash kerak bo'ladi. *«Hikoya qilish - ko'rsatish -mashq qilish»* sxemasi bo'yicha amaliy ta'limning an'anaviy usullari o'quvchilarni tayyorlashda yuqori samarali uslublar asosidagi barcha asosiy psixologik shart-sharoitlari bajarilishini ta'minlay olmaydi. Amaliyot ko'rsatishicha, o'quvchining tayyorgarlik sifatini va samradorligini oshirishdan tashqari o'quv jarayoniga yangi uslublarni tatbiq qilish, ta'lim oluvchilarga yanada chuqur tarbiyaviy ta'sir o'tkazish ham o'quvchilarni samarali tayyorgarligini ta'minlaydi. O'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishning muhim yo'nalishi - bu harbiy ishning nazariy qoidalarini qo'shinlarning amaliy faoliyatga maksimal ravishda yaqinlashtirishdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida real jangovar muhitga to'g'ri keladigan sharoitlarni yaratish zarur.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish Respublika Qurolli Kuchlarida ham muhim o'zgarishlar qilishga sabab bo'ldi. Chunonchi, 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi *«Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»*gi Qonunni ko'rish mumkin. Unga binoan, Qonun fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi. Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga



rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi tajovuz bo‘lgan taqdirda, aholini muhofaza etish chora-tadbirlarini qamrab oladi. Harbiy xizmatchining huquqlari va ulardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi. Biron-bir kishi harbiy xizmatchining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan huquqlaridan cheklash huquqiga ega emas. Harbiy xizmatchilarning o‘z huquqlaridan foydalanishi jamiyatning, davlatning huquqlariga va qonuniy manfaatlariga, harbiy xizmatga, boshqa harbiy xizmatchilar va turli fuqarolarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Davlat harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va huquqiy muhofazasini kafolatlaydi, ularga yetarli va munosib turmush darajasini yaratish, xizmat va maishiy sharoitini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilarning huquqlarini ta‘minlash va qo‘riqlash davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlarining, sudlarning, huquqni muhofaza qilish organlarining harbiy boshqaruv organlari va komandirlar (boshliqlar)ning zimmasiga yuklatiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy ta‘limda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonunlar, harbiy nizomlarda ko‘rsatilgan imtiyozlardan to‘liq foydalanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o‘tayotgan askar-matrosalar, serjant-starshinalar, ofitserlar o‘tkaziladigan Oliy Majlisga, mahalliy saylovlar, referendumlarda ishtirok etish va boshqa huquqlardan foydalanadilar.

Harbiy xizmatchi — haqiqiy harbiy xizmatni bajaruvchi shaxs hisoblanadi. U Vatanning, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining himoyachisi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilar askar va matrosalar, serjantlar va ofitserlar (kichik, katta, oliy) tarkibiga bo‘linadi. Harbiy xizmatchi o‘z Vatanini himoya qilish jarayonida shaxsiy javobgarlikka egadir. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa



jamoat tashkilotlari va birlashmalarining faoliyati bilan aloqador bo'lmashliklari lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasining «Himoyachisi» oliy unvonini sharaf bilan oqlashga, Qurolli Kuchlarning, o'z harbiy qismining or-nomusi va jangovar shuhratini, o'z harbiy unvonining obro'sini e'zozlashga, harbiy qasamyodga sodiq qolishga, xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishga O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy butunligini matonat, mahorat bilan, so'nggi tomchi qoni qolguncha, hatto hayotini ayamadan himoya qilishga, harbiy burchni bajarishga; mamlakat Konstitutsiyasiga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish vazifalarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidashga; harbiy kasb bilimlarini muntazam egallashga, o'z o'quv askariy mahoratini takomillashtirishga; o'ziga ishonib topshirilgan qurollasla va harbiy texnikani bilishi, ishlatishda doimiy shaylikda saqlashga, harbiy mulkni asrashga; halol, intizomli, jasur bo'lishga, harbiy burchni ijro etish chog'ida oqilona tashabbuslar ko'rsatishga; komandirlarga (boshliqlarga) so'zsiz bo'ysunish va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism jangovar bayrog'ini qo'riqlashga; askariy yurish-turish odobi qoidalariga rioya qilishga va harbiycha salom berishni bajarishga, har doim rusum bo'yicha, ozoda va saranjom kiyinishga, vatanparvarlik ko'rsatishga, xalqlarning baynalmilal do'stligini qadrlashga, millatlar va elatlar o'rtasida birodarlikni mustahkamlashga imkon yaratishga majburdir.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, xalqimiz ongida ta'lim-tarbiya tizimiga nisbatan katta o'zgarishlar paydo bo'ldi, yoshlarimiz o'rtasida esa bilim olishga bo'lgan intilish va qiziqish kuchaydi. Bugun iqtidorli yoshlarimiz yurtimizdagi yangi, eng zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritayotgan tarmoqlarda murakkab texnologiyalarni boshqarmoqda, ilm-fan, madaniyat, sport sohalarida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritmoqda. Bu ham bo'lsa – davlatimiz rahbari va hukumatimizning zamon bilan hamnafas ish yuritishi, ta'lim-tarbiya tizimiga bo'lgan



beqiyos g'amxo'rliigi va keng ko'lamli ta'lim islohotlari jarayoniga alohida e'tibor berib kelayotganligining samarasidir. Zotan, har bir mamlakatning buguni va kelajagi, tom ma'noda, ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani, yosh avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qamoqqaolishgasanksiyaberishhuquqinisudlargao_tkzishto_g_risillda 2005 yil 8 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3644 sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunhujjatlari to'plami, 2005 yil. 32-33 son, 242-modda
2. O'zbekiston Respublikasi dao'limjazosinibekorqilish to'g'risida 2005 yil 1avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3641 sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunhujjatlari to'plami 2005 yil. 30-31 son, 223-modda.
3. 8. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. O.,
4. «O'zbekiston», 1996.
5. G.M. O'ansiqboyeva. Xalqaro gumanitar huquq. O., 2000.
6. .F.A. Abdullayev, E.X. Rasulev, A.R. Rahmonov. Qurolli to'qnashuvlar huquqi. O., «Adolat», 2001.
7. 14. O. Hakimov. Xalqaro gumanitar huquq. O'quv qo'llanma. O., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
8. I.K. Abdukarimov. Men general bo'laman. O., «Cho'lpon», 2001.
9. 1 Vatan himoyasi — muqaddas burch. O., «O'zbekiston», 2001
10. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari.
11. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomi. Toshkent - 2006 yil.
12. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi" qonuni Toshkent - 2003 yil.

